



## MILLIY KOLORITNI ANGLATADIGAN SO‘Z VA IBORALAR: TARJIMADA USLUBIY VA MA’NAVIY O‘ZGARISHLAR TAHЛИLI

**Jumanova Shohista Rofiyevna**

*Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda milliy koloritni anglatadigan so‘zlar va iboralar, ularning tarjimadagi uslubiy va ma’naviy o‘zgarishlari tahlil qilindi. Milliy koloritga – bu til va adabiyotda ma’lum bir xalqning madaniy xususiyatlarini, urf-odatlarini, ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi so‘zlar va iboralardir. Bu tahlilda milliy koloritni anglatadigan so‘zlar va iboralar, ularning tarjimada qanday ifodalanishi va madaniy moslashuvi, shuningdek, tarjima jarayonida yuzaga kelgan uslubiy va ma’naviy o‘zgarishlar o‘rganildi. Asl matnning madaniy va tarixiy kontekstini saqlab qolish bilan birga, tarjimaning universalligi ham ta’milanadi. Tahvilning asosiy maqsadi – tarjima jarayonida milliy koloritni aks ettiruvchi so‘zlar va iboralarning qanday o‘zgartirilishi, ularning ma’nosini va uslubiy saqlanishi yoki o‘zgarishi mumkinligini ko‘rsatishdan iboratdir. Ushbu tadqiqot orqali milliy kolorit va uning tarjimadagi o‘zgarishlarini o‘rganish orqali tarjima amaliyotiga yangi yondashuvlarni taklif etadi.

**Kalit so‘zlar:** milliy kolorit, kaltacha, beqasam kamzul, shohi ro‘mol, amirkon kavish-mahsi, choynak, piyola.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida diniy tushunchalar bilan bir qatorda, milliyligimizni anglatuvchi, faqat o‘zbek millatiga xos bo‘lgan an'analar milliy koloritga xos bo‘lgan so‘zlar ham talaygina. Masalan, romanda *kaltacha, beqasam kamzul, shohi ro‘mol, amirkon kavish-mahsi, choynak, piyola* kabi so‘zlar o‘rin olgan. Roman Jakobson o‘zining asarida “Milliy koloritni anglatadigan so‘zlar faqat tilni o‘rganishning vositasi bo‘lib qolmay, balki bir xalqning dunyoqarashi va madaniyatini, uning g‘oyaviy, axloqiy va estetik qadriyatlarini ham o‘zida mujassam etadi”, degan fikrlarni ilgari surgandi.

*Asliyat matni:* Ustida go‘yo xonatlas ko‘ylak, Xitoy tovardan kaltacha, toza beqasam kamzul, qimmatbaho shohi ro‘mol, amirkon kavish-mahsi...(81-b.)

*Kristofor Fort tarjimasi matni:* She was dressed in a silk shirt, pants from China, a velvet camisole, an expensive shawl, slippers made of American leather. (99-p.)

*To‘xtasinov tarjimasi matni:* She was dressed in expensive clothes, expensive shoes, golden bracelets, shining rings and beautiful fingers on. (65-p.)

Yuqorida keltirilgan tarjimalardan shuni anglashimiz mumkinki, To‘xtasinov milliy koloritga oid so‘zlarni *qimmatbaho kiyimlar* sifatida umumlashtirib ifodalagan bo‘lsa, Kristofor Fort so‘zma -so‘z tarjima qilishni afzal bilgan. Biroq milliylini anglatuvchi so‘zlar ifodalangani sabab, ingliz tilida bu kabi so‘zlarning ekvivalenti toppish mushkul vazifa hisoblanadi. O‘zbek madaniyatiga xos bo‘lgan tushunchalar, ingliz madaniyatida mavjud bo‘lmasligi mumkin. Masalan: yuqoridagi *beqasam, xonatlas* kabi so‘zlar faqat o‘zbek madaniyatiga xos. Uning tarjimasini berish murakkab



masala. Tarjima qilingan asarlarda biz doimo uning kamchiligini topmasdan, balki tarjimonning san'atiga e'tibor qaratishimiz lozim. Mixail Bahtin shunday fikrlarni ilgari suradi: “*Milliy kolorit o'ziga xos til va ifoda vositalari bilan xalqning o'zligini yaratadi. Har bir xalqning so'zlashuvi, uning dunyoqarashi va ma'naviyati bilan bog'liqdir.*” Chunki, tarjimon o‘z tarjimasida yo o‘sha xalqning yoki o‘z xalqi turmushidan kelib chiqib o‘z ishini amalga oshirishi mumkin, qolaversa, tildagi ma’lum bir tushunchalarni, ba’zi so‘z, iboralarning ikkinchi bir tildagi muqobili bo‘lmasligi mumkin. Bu esa bevosita tarjimonlarda shu tildagi mavjud iboralarni qo‘llanmay qolib asliyatdagi emotsiyonal-ekspressivlikning to‘la ifodalanmasligiga sabab bo‘lmoqda. Biz bu kabi so‘zlarni tarjimada izohlab yoki rasmini keltirish orqali tushuntirib bera olamiz, xolos. Kristofor Fort atlasni *silk*, ya’ni *ipak* bilan ifodalagan, *amirkon kavshni* esa Amerika charmidan qilingan shippak sifatida keltirmoqda. Bunda tarjimon atlasning silliq mato ekanligiga ishora qilib, ipakka o‘xshatgan bo‘lsa ajab emas. Biroq aslini olganda *amirkon kavsh* deyilganda Amerika emas, balki amirlarga xos bo‘lgan oyoq kiyimi nazarda tutilmoqda. Bundan tashqari, *kaltacha* so‘zini ingliz tilidagi *pants (shim)* kabi ifodalamoqda. Biroq bu kabi so‘zlarining ekvivalenti mavjud emas. Tarjima nazariyasida bu holat o‘zaro moslikning mavjud emasligi deb yuritiladi. Yana bir misolni tahlil qilib ko‘ramiz. Masalan, quyida *choynak va piyola* so‘zlarining tarjimasiga yuzlanamiz:

*Asliyat matni:* So‘ngra o‘rnidan turib, ayvonga bordi; u yerda *choynak* bilan *piyola* turgan edi,sovuv choyni piyolaga to‘ldirib quygach, bir shimirishda tamom qildi. (103-b.)

*Kristofor Fort tarjimasi matni:* Miryoqub got up and went to the porch; a teapot stood there, and after pouring cold tea into a cup, he drank it in one gulp. (114-p.)

*Kristofor Fort choynak* so‘zini teapot, *piyolani* esa cup tarzida ifodalagan. Biroq bu ikkala so‘z ham milliy koloritga xos so‘z bo‘lganligi uchun ularni tarjimada izohlash talab etiladi. Quyida keltirilgan yana bir misolda To‘xtasinov tarjimasida *chimildiq* o‘z holicha qoldirilgan bo‘lsa, Kristofor Fort bu so‘zni *parda* so‘zi bilan leksik almashtirgan.

*Asliyat matni:* Xotinlar chuvillashib, chimildiqqa tomon yugurdilar. (130-b.)

*Kristofor Fort tarjimasi matni:* All the women in the courtyard ran towards the sound. They surrounded the curtain. (132-p.)

*To‘xtasinov tarjimasi matni:* The women rushed towards the *chimildiq*. (99-p.)

Bugungi kundagi texnologiyadagi yutuqlarga qaramay, inson tarjimonlari har doim til to‘silalarini yengishda rol o‘ynaydi. Chunki insonga robotlarda mavjud bo‘limgan tuyg‘u his qilish, anglash kabi xususiyatlar berilgan. Robot insonni yaratmaydi, insonlar robotlarni yaratadi. Shunday ekan, sifatli tarjimaga erishish insondan chuqur bilim, orttirilgan tajriba, malaka talab etadi. Bunga esa tinimsiz olib borilgan mehnat bilan erishish mumkin. Ushbu tahlil natijasida, milliy koloritni anglatadigan so‘zlar va iboralarning tarjimadagi uslubiy va ma’naviy o‘zgarishlari haqida bir qancha muhim xulosalar chiqarildi. Mashhur tilshunos olim Edvard Sapir: “*Milliy koloritni anglatadigan so‘zlar tilni tashqi ko‘rinish sifatida emas, balki ichki*



*madaniyat va xalqning umumiy ruhiyatini aks ettiruvchi bir vosita sifatida ko‘rish kerak” degan edi.*

Milliy kolorit va uning rolini aniqlash: Milliy koloritni anglatadigan so‘z va iboralar adabiyotda xalqning madaniy xususiyatlari, urf-odatlari va ijtimoiy hayotini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu so‘zlar nafaqat tashqi muhitni, balki xalqning ichki dunyosini, dunyoqarashini va qadriyatlarini ifodalaydi.

Tarjimadagi o‘zgarishlar: Tarjima jarayonida milliy koloritni aks ettiruvchi so‘zlar va iboralar, ba’zan to‘liq tarjima qilinmaydi, soddallashtiriladi yoki madaniy moslashuv uchun o‘zgartiriladi. Bu jarayon natijasida ba’zi iboralar, ayniqsa madaniyatga xos bo‘lgan atamalar, o‘quvchi uchun noaniq yoki tushunarsiz bo‘lishi mumkin, shuning uchun ularni kengroq, universal ifodalarga almashtirish talab qilinadi.

Uslubiy o‘zgarishlar: Tarjimonlar milliy koloritni saqlab qolishga intilishadi, lekin ba’zida tilning o‘ziga xos uslubiy xususiyatlari va o‘quvchining madaniy xabardorligiga moslashish uchun ba’zi o‘zgarishlar kiritilishi zarur. Buning natijasida asarning original uslubi ba’zan o‘zgarishi mumkin.

Madaniy moslashuv: Milliy koloritni aks ettiruvchi iboralar va so‘zlar tarjimaga o‘tkazilganida, tarjimonlar ko‘pincha madaniy moslashuvni amalga oshiradilar. Bu jarayonda original matnning madaniy konteksti, ularning o‘ziga xosligi va tarixiy ahamiyati saqlanadi. Lekin ba’zi hollarda, madaniy tafovutlar tufayli tarjima ma’nosida o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin.

Milliy koloritni aks ettiruvchi iboralarni to‘liq va aniq tarjima qilishda ba’zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. O‘zbekcha iboralar va so‘zlar, ularning madaniy va tarixiy konteksti bilan birga, ingliz tiliga yoki boshqa tillarga to‘g‘ri tarjima qilishda ba’zi noaniqliklar va tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Tarjima jarayonida milliy koloritni anglatadigan so‘zlar va iboralarining o‘zgarishi, ularning madaniy moslashuvi va uslubiy o‘zgarishlari adabiy tarjima amaliyotining murakkabligi va nozikligini ko‘rsatadi. Tarjimada milliy koloritni saqlab qolish, asarning chuqur ma’nosini, ijtimoiy va madaniy qatlamlarini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Buning uchun tarjimonlar nafaqat so‘zlarning ma’nosini, balki ularning madaniy va tarixiy kontekstini ham hisobga olishlari zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I.M. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. Night and day. Novel/Chulpan. Samarkand: Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti , 2023. – P. 218.
2. Cho‘lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021.B. 328.
3. Christopher Fort. Night and day – Boston: Academic Studies Press, 2019.- P.278.
4. Roman Jakobson. Linguistics and Poetics. - Harvard university press: London, England, 1987.-P 511



5. Mihail Bahtin. The Dialogic Imagination. - University of Texas Press Slavic series; no. I.1981- P. 480.
6. Edward Sapir. Language: An Introduction to the Study of Speech.New York,1921. P33-35